TILSHUNOSLIK

UDK: 811.111'367.625(075.8) **DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss2/a86**

DIZAYN (KOSTYUM) SOHASI NEOLOGIZMLARINING TARJIMADAGI XUSUSIYATLARI

ОСОБЕННОСТИ НЕОЛОГИЗМОВ В ОБЛАСТИ ДИЗАЙНА (КОСТЮМА) В ПЕРЕВОДЕ

PECULIARITIES OF THE TRANSLATION OF NEOLOGISMS IN THE FIELD OF DESIGN (COSTUME)

Nazirova Oygul Muxitdinovna[1]

[1]**Nazirova Oygul Muxitdinovna** – Namangan muhandislik texnologiya instituti “Chet tillar” kafedrasi tayanch doktoranti

Annotatsiya

Maqola inglizcha-o‘zbekcha lug‘atlarda hali tasvirlanmagan moda va dizayn sohasidagi neologizmlarni tarjima qilish muammolariga bag‘ishlangan. Shuningdek, unda tarjimaning muqobil usullari, shuningdek, tarjimonlar duch keladigan muammolar va ularning yechimlari muhokama qilingan.

Аннотация

Статья посвящена проблеме перевода неологизмов в сфере моды и дизайна, которые еще не были описаны в англо-узбекских словарях. Также обсуждаются альтернативные методы перевода, а также проблемы и решения, с которыми сталкиваются переводчики.

Abstract

The article is devoted to the problem of translation of neologisms in the field fashion and design, which have not yet been described in English-Uzbek dictionaries. It also shows the alternative ways of translation and problems and solutions that translators face with.

Kalit so‘zlar: *neologizm, nomlanish, tarjimon, ilmiy atama, ekvivalent, yangi so‘zlarni "ixtiro qilish".*

Ключевые слова: *неологизм, наименование, транслятор, научный термин, эквивалент, «изобретение» новых слов.*

Key words: *neologism, denomination, translator, scientific term, equivalent, "invention" of new words.*

KIRISH

Dizayn (kostyum) va moda bir-biriga chambarchas bog‘liq. Bu sohalar hozirgi paytda barcha uchun eng mashhur mavzularidan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham bu jadal sur’atlar bilan rivojlanayotgan ulkan sanoatdir. Moda juda o‘zgaruvchan va davriydir va har o‘n yilda qaytib keladi. Biz bir necha yil oldin ahamiyatsiz bo‘lgan, ammo yigirma yil oldin juda muhim bo‘lgan narsalarning qayta ko‘rib chiqilayotganini ko‘rishimiz mumkin. Har yili yangi fasonlar, yangi matolar, yangi soch turmagi, yangi kiyim uslublari va hatto ilgari mavjud bo‘lmagan butunlay yangi tendensiyalar kirib keladi. Natijada esa, nomlanishi kerak bo‘lgan ko‘plab yangi so‘zlar paydo bo‘ladi. Ilmiy tilda bu so‘zlar shu sohaning terminlaridir.

Neologiya — neologizmlarni o‘rganuvchi fan bo‘lib, u 1960-yillarning oxirida paydo bo‘lgan. [1] Neologiya muammosiga bo‘lgan katta qiziqishni neologizmlarning muhim roli bilan izohlash mumkin. Ularda tilning globallashuv jarayoni ta’sirida tez o‘zgarib turadigan faoliyat sharoitlariga moslashuvi, jamiyatimizning jadal rivojlanayotgani aks etadi. Yangi texnologiyalar paydo bo‘ladi, yangi g‘oyalar va tashqi omillar shakllanadi. Ushbu jarayonning boshlang‘ich nuqtasi uning amaliy jihatidir, chunki madaniy, tarixiy va ijtimoiy-siyosiy voqealar leksik va nominativ faoliyatga katta ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu jarayonlar natijasida nomlarni ya’ni nomlanishni talab qiladigan yangi ob’ektlar va tushunchalar paydo bo‘ladi. Aynan shuning uchun ham lingvistik va ijtimoiy -madaniy jarayonlarni ularning funksional o‘zaro ta’sirida kompleks tarzda o‘rganish zarurati tug‘iladi. Bunday yondashuvning maqsadga muvofiqligi madaniyatning globallashuvi sharoitida yanada yaqqolroq namoyon bo‘ladi, bu esa davlatlarning jahon tizimiga jadal integratsiyalashuvi, jahon hamjamiyatining global kompyuterlashuvi bilan birga keladi. Tilda biz o‘rganib qolgan eng tanish so‘zlardan tubdan farq qiladigan yangi so‘zlar paydo bo‘la boshlaydi. Bu so‘zlar neologizmlar deyiladi.

Moda va dizayn sanoatining jadal rivojlanishi natijasida har yili yangi so‘zlar soni ortib bormoqda. Ularning ko‘pchiligi tilda o‘rnashadi va keyin nafaqat moda jurnallari sahifalarida, balki

kundalik nutqda ham qo‘llaniladi, boshqalari esa bir necha oydan yoki yildan keyin o‘z ahamiyatini yo‘qotadi va nutqdan chiqib ketadi. Ingliz tilidagi nashrlar har oy o‘nlab moda va dizayn maqolalarini chop etadilar. Tarjimonlar esa o‘z navbatida moda va dizayn sanoatidagi neologizmlarni tarjima qilish muammosiga duch keladilar. Qiyinchilik mazkur so‘zlarning o‘zbek tilidagi ekvivalentlarning yo‘qligidadir. Shuning uchun moda va dizayn sanoatida neologizmlarni tarjima qilishning eng mashhur usullari: tasviriy tarjima, transliteratsiya, transkripsiya, kalka usullari hisoblanadi.

Hozirgi kunda har yili turli tillarda yangi-yangi so‘zlar paydo bo‘lyapti. Bir so‘z tilga kirishib ketishi uchun qancha vaqt ketadi? Bu savolga aniq javob yo‘q. Hamma narsa individualdir. Ba’zan yangi tushuncha hayotimizning bir qismiga aylanib, tilda o‘z o‘rniga ega bo‘lishi uchun nafaqat bir necha yillar balki o‘n yilliklar kerak bo‘ladi. Biroq, shuni ta’kidlab o‘tish joizki, neologizmlar qoidaga ko‘ra tez-tez o‘zgarib turadi. Ba’zi neologizmlar tilda mustahkamlanib, nutqning bir qismiga aylanadi, boshqalari esa bir necha oydan so‘ng yo‘qolib ketishi mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Neologizmlarni tarjima qilish tarjimon uchun juda qiyin ish sanalgan, chunki yangi so‘zlarning ma’nosini topish har doim ham oson bo‘lavermaydi, aynan shuning uchun ham neologizmlarni tarjima qilish jarayonida muammolar paydo bo‘ldi. Ammo bunga qaramay, tarjima yo‘nalishi mutaxassislari ushbu muammoni hal qilish yo‘llarini topdilar. Ingliz tilidagi ilmiy terminlarni jadal o‘zlashtirish 1980-yillarning o‘rtalarida boshlangan va hozirgi kungacha davom etmoqda. Tarjimon uchun bu jarayon ham mashaqqatli, ham qiziqarli, chunki neologizmlarni tarjima qilishning bir necha usullari mavjud bo‘lib, ularning har biri o‘zining ijobiy va salbiy tomonlariga ega. Bundan tashqari, V.V.Gak nuqtai nazaridan neologizmga leksikografik ishlov berish neologiya fanining eng muhim vazifalaridan biri bo‘lishiga qaramay, tarjimon har doim ham o‘zbek tili lug‘atlaridan ingliz neologizmining ekvivalentini topa olmaydi [2, 12 -21]. Aynan so‘nggi savol, ya’ni, tarjimon shunday vaziyatdaki, hali lug‘atda ta’rifi keltirilmagan hamda tarjimon uchun juda qiyin bo‘lgan neologizmni tarjima qilishi kerak bo‘lib qoldi. Ushbu maqola shu muammoni o‘rganish va uni hal qilish yo‘llarini izlashga bag‘ishlangan.

Neologizmlarni tarjima qilish muammolari bilan V.N.Komissarov, L.S.Barxudarov, L.K.Latishev kabi olimlar shug‘ullangan.. V.N. Komissarovning so‘zlariga ko‘ra, “tarjima to‘laligicha asl nusxaga qaratilgan o‘ziga xos lingvistik vositachilik turidir” [3, 45].

Xuddi shu nuqtai nazarni Barxudarov L.S. va Latishev L.K. lar ham, “Tarjima imkon qadar tabiiy tilga yaqin bo‘lgan ikki tilli muloqotni ta’minlashga qaratilgan bo‘lishi kerak”, deya ta’kidlaydilar [4, 1975; 5, 1981].

Ushbu tadqiqot uchun biz turli zamonaviy serjilo moda jurnallarini (Vogue, Elle, Cosmopolitan, BoF-Business Of Fashion), moda va dizayn veb-saytlari va turli kiyim kataloglarini ko‘rib chiqdik va tahlil qildik (asos.com). Umumiy tanlash usulidan foydalanib, biz tahlil qilish uchun bir nechta termin tanlab oldik. Ta’riflarning tarkibiy tahlilini o‘tkazish va terminlarning etimologiyasi va tarjimasini aniqlashda biz Oxford Living Dictionary, Cambridge Dictionary, Longman Dictionary of Contemporary English Online kabi lug‘atlardan foydalandik. Biz moda va dizayn sohasidagi neologizmlarni bir nechta tematik guruhlarga ajratdik, xususan: kiyim-kechak, poyabzal, aksessuarlar va moda va dizayn bilan bog‘liq yangi tushunchalar. Tarjima usullaridan transliteratsiya so‘zning grafik shaklini shundayligicha uzatib berishga asoslangan. Transkripsiya texnikasi tilning fonemalaridan foydalangan holda asl leksik birlikni rasman qayta yasashga, asl so‘zga fonetik taqlid qilishga asoslanadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tilshunoslar tarjimonlar tarjima qilishda qo‘llaydigan ko‘plab usullar va uslublarni bilishadi. Neologizmlarni tarjima qilish tarjimondan maxsus bilim va malakaga ega bo‘lish talab qilinadi. Neologizmlarga oid so‘zlar asosan ilmiy adabiyotlarda uchraydi. Zamonamizning jadal rivojlanishi tufayli har yili turli tillarda ko‘plab ensiklopedik maqolalar paydo bo‘lmoqda. Neologizmlarni tarjima qilishda ularning chuqur mulohaza bilan ifodalanishi va bevosita yoki boshqa tilda tushuntirish berish orqali ifodalanishi juda muhimdir. Eng muhimi, so‘zning o‘zi ifodalayotgan asosiy ma’noni uning mazmunini buzmasdan to‘g‘ri ifodalab berishdir. O‘rganilayotgan tilda u yoki bu hodisaning to‘g‘ridan-to‘g‘ri ekvivalenti bo‘lmasa, ma’noni aniqroq ochib berish uchun atama, mavzu, uning fonetik yoki imlo shakli tasvirlanishi mumkin. To‘g‘ri, inglizcha lug‘atlar har yili lug‘atimizni o‘n minglab yangi so‘zlar bilan to‘ldiruvchi barcha yangi so‘zlari, majoziy iboralarni ro‘yxatga olishga qodir emas. Neologizmlar tarjimasining o‘ziga xosligi va murakkabligi ham shundadir. Tarjimonlar faqat kontekstga tayanishi va neologizmlarning ma’nosini boshqa, ko‘pincha ishonchli bo‘lmagan manbalardan, jumladan, onlayn lug‘atlardan izlamasdan, maqsadli tilga tarjima qilishga harakat

qilishi kerak. Bu shuni anglatadiki, ular so‘z yasalishining asosiy tamoyillariga asoslangan yangi so‘zlarni "ixtiro qilishlari" yoki ingliz neologizmlarini tushunarli tarzda tushuntirishlari kerak. So‘zning ekvivalentni topish eng oddiy usuldir. Agar so‘z lug‘atlarga kiritilgan bo‘lsa, odatda ekvivalentlarni topishda muammolar bo‘lmaydi. Biroq, tarjima qilinayotgan tilda mos keladigan analogini topish har doim ham mumkin emas, bu turli xil madaniy darajalar yoki hatto tegishli mamlakatlardagi siyosiy vaziyat bilan bog‘liq bo‘lishi ham mumkin. Yangi so‘zlarning ma’nolari haqida hech qanday ma’lumotga ega bo‘lmay turib, tarjimon tarjima tilida so‘zlarni noto‘g‘ri ishlatish xavfini kuchaytiradi. Agarda tarjimaning tasviriy usulidan foydalangan bo‘lsalar, ularni tekshirish ayniqsa muhimdir. Ushbu usul inglizcha-o‘zbekcha tarjimada yaxshi samara beradi, chunki har ikkala tilda ham ifodalash vositalari mutlaqo bir-biridan boshqacha. Ba’zan ingliz tilidagi bir nechta so‘zlarning ma’nosini o‘zbek tilida ifodalash uchun butun bir jumla talab qilinadi.

Qisqalik va ixchamlik ingliz tilining o‘ziga xos xususiyati bo‘lib, aynan manashu fakt tarjimonlarni yana quyidagi ikkita usuldan foydalanishga majbur qiladi: transliteratsiya va transkripsiya usullari. Amalda, ikkala usul ham ko‘pincha birga qo‘llaniladi. Shuni ta’kidlash lozimki, juda ko‘p inglizcha harf va tovushlarining oz’bek tilida o‘xshash shakllari yo‘q, buning natijasida ba’zi so‘zlar tarjima qilinayotgan tilda ikki yoki undan ortiq transliteratsiyaga ega bo‘lishlari mumkin.

Neologizmning ma’nosini va uning adekvat tarjimasini tushunish uchun quyidagilar zarur:

• olingan ma’lumotlar asosida kontekstni tahlil qilish va so‘zning ma’nosini aniqlash;

• inglizcha-o‘zbekcha yoki o‘zbekcha-inglizcha lug‘atlarga murojaat qilish va berilgan so‘zni "Yangi so‘zlar" bo‘limidan izlab topishga harakat qilish;

• yangi so‘zning tuzilishini o‘rganish orqali uning ma’nosini tushunish mumkin, ya’ni neologizm mavjud so‘z yasalish qoidalariga ko‘ra shakllanganmi yo‘qligini aniqlash kerak.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, neologizmlarni tarjima qilish amaliyotda shakllantirilishi mumkin bo‘lgan maxsus ko‘nikmalarni talab qiladi deyish mumkin. Zero, zamonaviy dunyo bir joyda turmaydi, faol globallashuv jarayoni ketmoqda, lingvistik voqeliklar o‘zgarib borayotgani kabi til ham o‘zgarib bormoqda. Bu degani esa har qanday tarjimon neologizmlarga duch kelishi muqarrar. Professional tarjimonga ko‘pincha kontekst yordam beradi, lekin faqatgina unga tayanish mumkin emas. Shuningdek, ma’lum bir tilning madaniyati va an’analari haqida ma’lumotga ham ega bo‘lish kerak. Quyidagi tarjima usullari mavjud [6, 173]. Neologizmlarni tarjima qilishda quyidagi tarjima usullari qo‘llaniladi: transkripsiya, transliteratsiya, kalka va tasviriy tarjima.

Tarjima transkripsiyasi — bu tilning fonemalaridan foydalangan holda asl leksik birlikning rasmiy fonemik ko‘payishi, asl so‘zga fonetik taqlid qilishdir [7]. Ushbu tarjima usuli asl so‘zning tovush qobig‘ini etkazish uchun mo‘ljallangan, lekin transliteratsiya elementlarini ham o‘z ichiga oladi. Zamonaviy tarjima amaliyotida transliteratsiyaning ayrim elementlari saqlanib qolgan holda transkripsiya usuli yetakchi usul hisoblanadi.

Masalan: romphim – rompim, sweatshirt – svitshot, close fitting – klouz-fitting

Transliteratsiya — tarjimaning bu usuli grafik tasvirni uzatishga, ya’ni harflarni shundayligicha uzatib o‘girib berishga asoslangan.

Masalan: crop top – kroptop, family look – femili luk, joggers – jogger, hipsters – hipster, treggins – treggins, hoodie – xudi, trumpet – trampet, gorpcore – gorpkor, moms – mom, shacket – sheket

Kalka — so‘z yoki so‘z birikmasini harfma-harf (hijjalab) tarjima qilish bilan o‘girish. [8, 39] Kalka tarjima tilida mos kelmaydigan lug‘atni yetkazib berish uchun ishlatiladi. Ushbu usul tilda allaqachon mavjud bo‘lgan elementlar va morfologik munosabatlar asosida tegishli mavzuni belgilash uchun yangi so‘z, ibora yoki qo‘shma so‘z yaratishni o‘z ichiga oladi.

Masalan**:** street style – ko‘cha uslubi, streetwear – ko‘cha kiyimi, duster – keng bichimli palto, swacket – jaket, hoodie – qalpoqli keng erkakcha kiyim, crop top – kaltlashtirilgan top, bathrobe-coat –xalat uslubli palto, blazer – pidjak, thongs – ochiq sandal, crocs – rezina shippak, flip-flops – vyetnamka

Tasviriy tarjima — Tasviriy usulda tarjima qilish. Tarjimada goho na ekvivalent, na muqobil variant va na kalka yordamida o‘girishning imkoni topiladi. Bunday hollarda tarjima amaliyotining tasviriy usuliga murojaat qilinadiki, mazkur usul yordamida ma’no erkin ma’nodagi so‘z yoki so‘z birikmalari vositasida tushuntirib qo‘ya qolinadi. [9] I.S.Alekseyevaning fikricha tasviriy tarjima usuli odatda moslash jarayonida mos kelmaydigan so‘zning ma’nosini yetkazib berish, shuningdek, mazkur tushuncha o‘quvchiga noma’lum yoki notanish va ichki izohga muhtoj bo‘lgan holatlarda so‘zning ma’nosini aniqlashtirish uchun qo‘llaniladi [10]

Masalan: winklepickers – o‘tkir uchli tufli, comfury – qulaylik va dabdabani o‘zida uyg‘unlashtirgan kiyim uslubi, sadwear – o‘zini yaxshi his qildiruvchi kiyim, armanied – o‘ta zamonaviy, braincore – aqlli va basavlat ko‘rsatuvchi kiyim.

XULOSA

Dizayn (kostyum) va moda sanoatining jadal rivojlanishi har yili o‘zi bilan juda ko‘p yangi so‘zlarni olib kelmoqda. Ularning ko‘plari tilda mustahkamlanib, so‘zlashuv nutqida, jumladan, turli jurnal sahifalarida qo‘llanilmoqda, boshqalari eskirmoqda va iste’moldan chiqib ketmoqda. Bunday neologism- terminlarini mazmunini yetarli darajada yetkazish uchun tarjimon nafaqat o‘zbek tilini, balki avval ushbu terminning barcha tarkibiy qismlarini o‘rgangan holda rus va ingliz terminologiyasini ham yaxshi bilishi kerak. Hozirgi kunda ikki tilli lug‘at har doim ham ishonchli manba bo‘lavermaydi. Bunday leksik birliklarni adekvat tarjima qilish uchun tarjimon ular bilan ishlashda ma’lum qobiliyatga ega bo‘lishi hamda tegishli metodikaga ega bo‘lishi kerak. Agar maqsad tilda ekvivalenti bo‘lmasa, tarjimon uni boshqa tildan o‘zlashtirib oladi yoki yangisini yaratadi. Ushbu tadqiqotda yuqoridagi materiallarga asoslanib, biz neologizm tilda paydo bo‘lgan yangi so‘z, lingvistik yangilik (nutq qurilmasi) ekanligini aniqladik. Neologizmlar tarixning istalgan davri uchun ham mutlaqo yangi leksik birliklardir. Moda va dizayn sanoatida neologizmlarni tarjima qilish xususiyatlarini o‘rganish amaliyotiga asoslanib, ushbu sohadagi neologizmlarni quyidagi usullardan foydalangan holda tarjima qilish mumkinligi aniqlandi:Xulosa qilib aytganda, neologizmlarni tarjima qilishda biz rioya qilishimiz kerak bo‘lgan eng muhim qoida bu so‘zlarning ma’no va mazmunini bir tildan boshqa tilga ko‘chirib o‘tkazishdir. Yuqorida keltirilgan fikrlarga asoslangan holda esa, neologizmlarni tarjima qilish amaliyotda shakllantirilishi mumkin bo‘lgan maxsus ko‘nikmalarni talab qiladi deyish mumkin. Ko‘p hollarda so‘zlarni to‘g‘ridan to‘g‘ri o‘zlashtirish yoki transliteratsiya va transkripsiya kabi tarjima texnikalari tufayli buni bajarish juda oson. Biroq, tasviriy tarjima ancha murakkab usul bo‘lib, u tarjimondan izohli lug‘atlar bilan yaqindan ishlashni talab qiladi. Bu ma’lumotlardan xulosa qilishimiz mumkinki, transliteratsiya ushbu tematik guruhning neologizmlari uchun eng ko‘p va samarali qo‘llaniladigan tarjima usuli hisoblanadi. Bundan tashqari, lingvistik nuqtai nazardan, neologizmlarning o‘zi ham umumiy lug‘at asosida quriladi. Kontekst va neologizmning o‘zini to‘g‘ri tahlil qilgan holda, tarjimon ingliz tilidagi neologizmning tarjima qilinayotgan tildagi to‘g‘ri ekvivalentini tanlashga qodir. Ayni paytda tarjimonlar istalgan vaqtda neologizmlarni kiritishlari mumkin bo‘lgan onlayn lug‘atlar va turli forumlarning mavjud ekanligi tufayli vaziyat yaxshilanmoqda.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Cheraneva M.S., Kuzmina O.D., Problemi perevoda neologizmov s angliyskogo na russkiy yazik v sfere visokix texnologiy, nauch.statya, Kazanskiy vestnik molodix uchenix. Pedagogicheskiye nauki. T. 1, № 2 (2), 2017 g

2. Gak V.G., Gak M. Sopostavitelnaya leksikologiya. Mejdunarodnie otnosheniya, 1997. — 264 s.

3. Komissarov, V.N. Sovremennoye perevodovedeniye: ucheb. posobiye / V.N. Komissarov. – M.: ETS. – 2001. – 424 s.

4. Barxudarov, L.S. Yazik i perevod / L.S. Barxudarov. – M.: «Mejdunar. otnosheniya», 2009. – 240 s.

5. Latishev, L.K., Kurs perevoda: (Ekvivalentnost perevoda i sposobi yee dostijeniya), Moskva : Mejdunar. otnosheniya, 1981, 247 s.

6. Комиссаров В.Н., Теория перевода (лингвистические аспекты): Учеб. для ин-тов и фак. иностр. яз. - М.: Высшая школа, 1990. - 253 с

7. Kazakova T.A. Prakticheskiye osnovi perevoda. – Seriya: Izuchayem inostrannie yaziki. – SPb.: Izd-vo «Soyuz», 2001. – 320 s

8. Sodiqov Z. va Abduraxmonova D., “Tarjimashunoslik terminlarining ko‘ptilli lug‘at-ma’lumotnomasi” (o‘zbek, olmon, ingliz, rus tillari), Namangan - 2017

9. Internet manba: http://www.hozir.org/samarqand-davlat-chet-tillar-instituti-tarjima-nazariyasi-va-a-v3.html?page=27

10. Алексеева И.С., Введение в переводоведение, Учебное пособие, М.: издательский центр Академия, 2004, 352 с